Асар қаҳрамони бошига тушган ташвиш фожа эмас, хурсандчилик ҳам эмас. Қандайдир кўнгилсиз ҳолат. Адиб асарларида воқеалар, ҳодисалар муҳимлик касб этмайди. Уларнинг бадий нутқда аҳамияти ҳам йўқ. Шу воқеа-ҳодиса ортидаги кутилаётган жараён, моҳият муҳимлик касб этади. Юқоридаги тасвир умумматнидан рамзийлик – соясини йўқотган одам ҳолати ойдинлашади. Назаримизда, унинг бу ҳолатидан ҳеч ким ташвишга тушмайди, балки боши қовушади. Назар Эшонқулнинг “Баҳовуддиннинг ити” ҳикоясида рижессёр ўзлигини англайди. Шунинг учун оломондан узоқлашади. Узоқлашиш жараёнида ҳам барча уни ёмон кўриб, кўрарга кўзи бўлмайди. Аҳмад Аъзамнинг “Ҳали ҳаёт бор” қиссасида ҳам Аълам фикрсиз, қолоқ, муте бир тўдадан қочиб кутилади. Уни ҳам барча ёмон кўради. “Соясини йўқотган одам” ҳикояси қаҳрамонига эса барча яқинлашади, яхши кўриб қолади. Соясини йўқотган одам хориж адабиётларини кўп ўқигани боис, ёлғон тузумнинг ҳийла-найранглари қалбан-ақлан ҳис этади. Инсон эркинлиги, шахслик тушунчаси, озод инсон ғояси, демократик тамойиллар, инсон ва ҳурлик ғоялари билан ўзи



яшаётган жамиятдаги бошбошдоқлик, ҳақ-ҳуқуқсизлик, адолатсизлик, инсон шаънининг оёқости қилиниши, мутелик, оломончилик, қиёфасизлик ўртасида зидлик мавжудлигини англагач, барча нарсдан воз кечади. Бефарқ, лоқайд кимсага айланади. баъзида қилган исёнларидан воз кечади. Телбадек бўлиб, одамлар орасида юриб, одамлигини, шахслигини йўқотади. Шунинг учун атрофдагилар унинг ҳолатини касаллик деб қабул қилишади. Унга нисбатан яхши муносабатда бўлишнинг сабаби – шу.

Аҳмад Аъзамнинг “Тугмачагул” новелласи 2010 йилда ёзилган. Новелла 35 саҳифани ташкил қилади. “Кичик ҳажмдаги ҳикоя – новелла” дегувчилар бир яна ўйлаб кўришлари мақсадга мувофиқдир. Биз ҳам бу ҳақда диссертациямиз бошида фикр билдирганмиз. Асар нисбатан кейинги йиллар маҳсули бўлганлиги учунми, негадир Аҳмад Аъзам новеллада анъанавий усул танлаган. Гарчи новелла биринчи шахс тилидан ҳикоя қилинса-да, ундаги кенг эпик пландаги табиат тасвирлари, манзаралар яратиш, қиёфалар чизгилари бир оз янгиликдай туюлади.

“Куз. Хазонлар яккам-дуккам эринчоқ тукиляпти, ерда ётганлари ўтган катта юк машиналари эпкинига тўс-тўпалон кўтариб эргашади. Ҳаво бурқиб турибди-ю унча совуқ эмас, изғирини йўқ, аммо дўкон ичи изғирроқ шекилли, у катта-катта ангор гулли, қалин жун камзул кийиб, устидан белига тивит румол ҳам бойлаб, хурпайиб олган, худди полвонларга ўхшаб. Ўзи ҳам полвондек хотин бўлиб кетибди. Ҳа, энди шунча йил қизлигича турмайди-ку. Лекин унинг олдида ёшлигимни туйдим: елкам ҳали чўкмаган, эгнимда шинам костюм, машинада шунча йўл босиб келаётганимга қарамай, дазмоли ўлмаган, ҳозиргина дўкондан олиб кейингандек, албатта, чиройли галустук. Сал олифталигим ҳам бор, танлаб кияман. Ўртасидан катта йўл кесган бир кишлоқ, хурпайиб турган бу аёл олдида ёшимга нисбатан анча ёш кўринаман. Унинг қизлигидан ўша эски қош, ҳа, кейин, одамга қарамай куйдирадиган кўзи қолибди. Тавба, ка-атта хотин-эй, ўзига сал-пал қарамаган экан-да, а?”<sup>9</sup>

Мазкур тасвир табиат тасвири билан қиёфа тасвирининг уйғунлашиб кетишидан ҳосил бўлган. Биргина тугун вазифасини ўтаб берувчи новелла бошламаси бутун асар руҳини ўзига сингдиргандай тассурот уйғотади. “Куз” умрнинг кексалик фаслига ишора қилади. “Хазонларнинг яккам-дуккам эринчоқ тўкилиши” муаллиф назарида, зерикарли ҳаёт тасвири. Қишлоқ, бир ҳаётнинг, нурсиз кечмишнинг такрори аёлни эзиб кўйган. “баргларнинг тус-тўполон кўтариши, машиналар ортидан югуриши” қандайдир қалб безовталигини, у ҳам шундай яшашга рози эмаслигини уқтираётгандай туюлади. Кузнинг ёкимсиз, этни жунжиктирадиган совуғи уни қалин кийинишга мажбур қилган. Бундай кўринишдаги семиз, бўйчан одамларни кишлоқда полвонга қиёслашади. “Худди”, “-дек” юкламалари полвон сўзини икки марта қиёслайди, ўхшатади. Бу билан муаллиф нутқида унга нисбатан ғараз, кўролмаслик, ёшликдаги муҳаббатнинг рад этилиши орқасидаги аламзадалик сезилиб туради. Ҳаддан ортиқ семириш ҳам хунуқлик, беўхшовлик рамзига айланиб кетган. Муаллиф

<sup>9</sup> Аъзам А. Ҳали ҳаёт бор....85-б.



шу “беўхшов” сўзини “полвондек хотин бўлибди” жумласи билан ифодалайди. Ундан ташқари халқда семиз аёлларга нисбатан “сўқимдай хотин” жумласи ҳам ишлатилади. “Полвондек хотин” бирикмасида юқоридаги салбий оттенкали сўз маъноси ҳам йўқ эмас. ўзини кийинишини мақташи, кийимларни бежиримлигини алоҳида қайд этиши каби сипогарчиликлар тасвири, унинг олдида ўзини катта чоғлаш, менга текканингда бундай абгор юрмасдинг қабалидаги ноихтиёрый кеккайишлар ҳам йўқ эмас. Аёлга нисбатан “Хурпайиб” сўзининг икки марта ишлатилиши юқоридаги фикрларни далиллаш билан бирга, унга нисбатан рад этилган муҳаббат алами – ҳурматсизликни келтириб чиқаради. “Хурпайиб” сўзи одамга нисбатан айтилмайди. Эътибор берсангиз, “қизлигидан қолган эски қоши” деган жумла ишлатилади. “қайрилма қоши”, “бурама қоши” деса матн маъносига путир этмасди. “Эски қош” сўз бирикмаси бир-бири билан маъно жиҳатдан боғланмайди. Бу атайин салбий бўёқдор сўзларни бўрттириш учун ишлатилган жойига тушмаган жумладир. “Тавба ка-атта хотин-эй”, кап-катта хотин бундай ўзига қараб юрса бўлмайдими, демоқчи қаҳрамон. У қишлоқда яшаса, ҳамма катори яшаётган бўлса, улардан ажралиб кетиб бўлмайди. Иссиқ уй йўқ, ҳар куни ҳаммом йўқ. У бечора нима қилсин. Қисқаси ёзувчи биргина тасвир орқали асар қаҳрамонининг ўта салбий муносабатини ифодалай олган.

Аҳмад Аъзамнинг “Асқартоғ томонларда” қиссасида ҳам унинг тилдан фойдаланиш маҳорати ўзгача, ноанъанавий кўриниш ҳосил қила олади.

“Тилда бирор нарсани бошқа нарсдан ажратиб кўрсатадиган ўзига хос хусусиятларни таъкидлаш учун унинг махсус белгисини кўрсатиб турувчи сўзлардан фойдаланиш ёки шу нарса белгисини узундан узоқ гаплар воситасида изоҳлаб ўтирмасдан, уни бошқа бир нарсага ўхшатиб тасвирлаш орқали аёнликка, аниқликка эришилади. Баъзан турмушда айрим нарсаларнинг салбий томонларини тўғридан тўғри кўрсатишдан кўра киноя, истехзоларга мурожаат этилади. Бундай воситалар тилшуносликда тасвирий воситалар термини билан юритилади”<sup>10</sup>, деб ёзади Р.Қўнғуров.

Тилшунос олим бадий нутқнинг таянч нуқталари ҳақида фикр юритади. Ижодкор типик қаҳрамон характерини яратишда теша тегмаган сўзлар топиши, ўша сўзлар иштирокида, тасвирий воситалар ёрдамида фавқулодда кескин рухий кечинмалар тасвирини бериши керак бўлади. Ўхшатиш кўшимчалари ёрдамида фикр-мулоҳазани хулосалай олишни ҳам удалашни эплаш керак бўлади.

Асқартоғ муаллифнинг кўнгил тоғи, тинимсиз шу тоққа интилиш пайида юрган ровий фақат ўзи билан ўзи гаплашади. Ички нутқ, ўйлов унга тинчлик бермайди. Ўйлаган сари ўз ўйловлари сўнгги узоқлашиб кетаверади. Хаёлий чўққиларининг бирига етишса, униси томон интилишда давом этади. Уни ғойибдан баланд чўққилар имлаб чақириб туради. шунинг учун унинг кўнгил тоғлари чексиз, чегарасиз, унинг охирги манзили йўқ. Турмуши ҳар тугил ёмон эмас, лекин у кўнгилдан, ўз руҳиятидан Асқартоғини излаб яшашга маҳкум. Юқорига интилиш восита, аслида яшашнинг

<sup>10</sup> Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Т. Фан. 1977. 5-6.





мазмунига сабаб излайди. Жамиятда ўз ўрнига эга бўлишга, руҳ озодлигига эришишда, эркин кўнгили билан яшашга бир умр йўл излаб яшади. Ана шу интилиш, ҳаракатчанлик, бедорликдан ҳалават топади. Шунинг учун ҳам унинг қаҳрамонлари ўйчан. Руҳиятидаги ўзига қарши куч билан тортишиб яшайди. Тасвирда маҳсунилик кучли. Тасвирдан тасвир яратилади. Бу китобхонни фаолликка чорлайди. Наср руҳи ўқувчини тафаккур қилишга чорлайди.

Хуллас, Аҳмад Аъзам насри, ўз ибораси билан айтганда, тилсимли насрини ҳар бир тадқиқотчи ўз савиясидан келиб чиқиб таҳлил қилади. Қайси жиҳатларин ёритади, қайси жиҳатларини кўздан қочиради. Гап бунда ҳам эмас, унинг асарларида, жумладан “Асқартоғ томонларда” қиссасида бош қаҳрамон ўй-хаёллари таъсирида унинг ички оламида, нимадир ўзгарса, катарсис ҳодисаси рўй берса, асар ўз вазифасини бажарган бўлади.

Аҳмад Аъзам тасвирида мавҳум метофорик бирикмалар барча асарлари учун ҳам хос эмас. Унинг романлари, киноқиссалари тасвири тиниқ, жозибали, ҳикоячи руҳияти, қаҳрамон, персонажлар руҳияти қиёфалар, манзаралар таъсирида очиб берилади.

### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

- 1.Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Т Шарқ. 2007. 195-б.
2. Аъзам А. Ўзи уйланмаган совчи... 32-б.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Т.Фан. 2007. 82-б.
4. Аъзам Аҳмад. Рўё ёхуд Гулистонга сафар....98-б.
5. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Т. Фан. 1977. 5-б.
6. Аъзам А. Ҳали ҳаёт бор....85-б.
- 7.Қуроноф Д. Адабиёт назарияси асослари. Т.NAVOIY UNIVERSITETI. 2018. 238-б.
8. Тоҳиров З. Бадиий нутқ. Т. Fan va texnologiya. 1017. 11-б
9. Қахҳор А. Ёшлар билан суҳбат. Т. Академнашр. 2017. 12-б.
10. Қодиров П. Ўйлар.Т.Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1971.148-б.
11. Шарафиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. Т. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.164-б.



## FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR DURING ADOLESCENCE

**Hikmatova Nigora Shabonovna**

*Graduate student of Asian International University*

**Ramazonov Jahangir Djalolovich**

*Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute*

**Abstract:** *In this article, the development of deviant behavior among the young generation, its origin and criminality in society lie, laziness, theft, drunkenness, drug addiction, suicide and many other similar cases. opinions were expressed about it.*

**Key words:** *Deviant, youth, behavior, deviance, prevention, moral standards, theft, alcoholism, drug addiction, suicide, teenagers.*

Deviant behavior is a human activity or behavior that does not correspond to the moral standards established in society, a social phenomenon, such as lying, laziness, theft, drunkenness, drug addiction, suicide and many other similar cases are considered characteristics of this behavior.[1] The following are some of the more common forms of deviant behavior: Criminality. The negative attitude of some persons towards the laws and norms established in a certain country is a criminal activity, and this person is considered a criminal. Drunkenness. In this regard, there are several classifications in the scientific literature. Alcohol consumption at any time. Heavy drinking, drinking alcohol regularly, that is, from once to several times a week, or once a week, in large quantities with a break in between. This often leads to alcoholism. Alcoholism is a disease characterized by pathological (permanent) addiction to alcohol. Addiction. Regular use of narcotics or similar drugs and consumption without medical instructions. Sexism. Sex without official marriage is studied in science in two types: Concubinage - living together without marriage. Prostitution is selling one's body for money. While in the West the latter is mostly condemned, in the East both cases are considered as deviations from the norm. Bureaucracy. The term "bureaucracy" actually means "employee with authority". However, over time, "bureaucracy" began to be used in negative terms, such as localism, red tape, scheming, and abuse of office.[2] Nowadays, in many countries, the term "bureaucracy" has lost its original meaning and is understood as a kind of departmental style of management.

In addition to the above, negative situations such as localism, tribalism, and pastoralism are also noteworthy manifestations of social deviation. A social norm refers to a set of rules and principles accepted in society. Separate norms have been developed for each stratum and sector of society. These norms have been improved over the years and raised to the level of legal regulations. The more social norms and values, the more types of rule breaking there are. In addition, the norms of different cultures, as well as subcultures, are quite different even within the same society. Therefore, what is considered normal for one society can be considered as a deviation from the norm in another. For example, smoking marijuana is considered "deviant" in British culture, while drinking alcohol is not.



There are two views on the emergence of deviant behavior, the first is natural-biological, and the second is social-reductive. According to natural biological views, the role of biological factors in the origin of deviant behavior has a special place. Specificity of genetic structure, violation of biochemical control, malfunction of nervous system mechanisms and others are such factors. Socio-reductive theories try to explain deviant behavior with socio-economic conditions, denying any internal, including psychological, role.

According to the Hungarian psychologist F. Pataki, deviant behavior is systemic or multi-causal, and its emergence is due to the role of not one, but several, namely, historical, macro-sociological, socio-psychological and individual-personal factors. depends.

The formation of deviant behavior is influenced by both external (including socio-economic) and internal (psychological) factors. The first factors include unemployment, low standard of living, level of living of one or another stratum in society, etc. The second group of factors includes L.M. According to Zyubin, the following factors are included:

lack of mental development (but not a pathology), this condition prevents the correct analysis of one's actions, foreseeing the consequences;

lack of independence of thought, high degree of conformity, impressionability;

low mental activity, poverty and instability of spiritual needs.

There are two more psychological (internal) reasons for this problem:

unsatisfied prosocial (social) needs, under the influence of which an internal conflict arises in a person and leads to the formation of asocial (contradictory for society) needs;

asocial (contradictory to society) personality dispositions (motivators), which, in turn, encourage to satisfy their needs with antisocial ways and means.

Failure to satisfy the needs related to self-realization caused aggression in the child. Instead of what he lost, he tries to acquire something else. Failure to satisfy the need for independence and freedom leads to aggression towards everyone, protest, demonstrative disobedience, and running away from home.

brings Not being able to find one's true place in the family and among peers can lead to the use of negative forms of self-affirmation.

Improper upbringing causes contempt or negative attitude towards the norms and rules of social life in a child. Little by little, antisocial deviant behavior and motives for major crimes begin to form.

F. Pataki distinguished cultural and natural dispositions. Natural dispositions are psychopathic phenomena associated with psychophysiological disturbances in the organization of behavior. Socio-cultural dispositions are the solution of various conflicts on the basis of national, regional and ethnic traditions passed down from generation to generation. If these dispositions are mastered by a person, some attempts at deviant behavior may appear. Sometimes imitation of certain layers of society creates criminal situations.

According to F. Pataki, dispositions are not the direct cause of deviant behavior, but a factor that creates conditions for its occurrence. If in the early stages of socialization, inappropriate (unnecessary) traditions and aspirations correspond to corresponding socio-cultural patterns, then the probability of deviant behavior formation increases.



Norms of social behavior may not match in different historical periods, in different nations and peoples. In some societies, human sacrifice, blood revenge, drug use are considered compulsory and social norms. Alcoholism was considered a national pride, and suicide was considered heroic.

The main factors influencing the emergence of deviant behavior in adolescence are:

1. Morphological and physiological changes that occur during adolescence.
2. Manifestation of initial signs of nervous and mental diseases.
3. Increasing social sphere.
4. Defects in personal education.
5. Deficiencies in cognitive activity.
6. Disadvantages in the extracurricular environment.

According to the researches, there are pedagogical and psychological reasons besides the social reasons for the origin of children who are difficult to educate, capricious, with negative behavior.

Defects in the biological growth of the person, defects in the higher nervous activity and temperament that negatively affect learning, poorly developed intelligence, empty will, weak emotions, the absence of necessary needs and interests, the opportunity available with the aspirations of the teenager. Inconsistencies and imbalances can even derail the movement.

Defects in the formation of personal qualities: lack of moral feelings, incorrect communication with the teacher, class team, family members, lack of interest, inability to properly distribute free time and others also cause negative actions. Deficiencies in the person's knowledge and educational activities: the inability to widely use the methods of mental activity, most importantly, disorders in the acquisition of knowledge, skills and abilities, defects in school activities, teaching, mistakes in educational measures and activities are included in these.

Defects caused by the environment outside the school, lack of pedagogical and psychological knowledge in the family, family conflicts, parents' indulgence in alcoholism and sexual life, the influence of underage peers, cultural-educational, production communities, and the shortcomings of the public environment. can lead to an increase in difficult-to-parent teenagers. We can divide adolescents into several groups of deviant behavior according to their typological characteristics.

The first group of teenagers with difficult upbringing is called "orz" or "subutz". Knowing their situation, they violate laws and regulations and do inappropriate things. Often they do not admit that they are sinners, they criticize some shortcomings in school. But they don't want to recognize the achievements. they like to approve their personal opinions to other people and to have others fulfill their demands without words. Such children are obstinate, stubborn, merciless, "violent". They gather their peers who do not have an independent opinion around them and encourage them to break the order together.

Teenagers belonging to the second group with difficult upbringing understand good and bad, but because they do not have independent beliefs and stable feelings, they break the rules by standing in the "rear wing". Their actions depend on random reality, the force of influence and the nature of the situation. They are quick to campaign, they believe in



everything, they understand what path they are on, but they don't dare to go against the opinion of their community, and do desperate things. Often, the troublemakers repent of their actions and convince the members of the class team, but after a certain time has passed, they completely forget their promises.

Adolescents belonging to the third group who are difficult to educate, due to individualism, get into the path of lawlessness and disorder. They do not shy away from any inappropriate behavior to satisfy their personal demands and needs, they always want to do good to people, but they put their personal interests above social interests. They fulfill their desires with the help of forbidden methods, then they regret their actions and are crushed in spirit. But they quickly forget these experiences. Their personal needs are higher than any higher feelings and desires. Unethical behavior is manifested only in the form of pity.

Adolescents with capricious nature belong to the fourth group, they are sad that they did not find their place in the class team. They become grudges and complainers, so they live with the experience of being discriminated against in the class community. The main reason for the emergence of such a situation is the superiority of pursuit of ambition, inclination and reputation over personal capabilities. They want to be respected by their team members. Often

they act sensitively, their goodwill towards something is not obvious. A mood of depression, hopelessness, lack of confidence in one's own potential, mental strength, is a characteristic of them. If they do not actively try to break the laws and regulations, they create difficulties in the process of education and upbringing.

In order to direct the behavior of teenagers who are difficult to educate in a positive direction, it is necessary to instill in them high feelings such as responsibility, pride, responsibility, trust.

For this, they should be assigned tasks taking into account their age, ability, and interests. Their negative behavior can be reduced by entrusting them with the task of managing a small team, a sports section, and a living corner. By involving them in the activity, their negative attitude towards studying will gradually disappear. The most common type of deviant behavior that appears in adolescence is addictive behavior. There can be reasons that cause addictive behavior in teenagers - interest, lust, imitation, taking one's place in the circle of friends, etc.

Addiction to smoking tobacco products and drinking alcohol is very common among teenagers. Because the desire to gain prestige among peers, interest and desire to be recognized by others motivates a teenager to perform various illegal actions.

Today, due to the development of computer technology, addiction to computer games is also increasing.

Adolescent deviant behavior can include aggression towards other people, theft, crime, bullying, etc. Different psychodiagnostic methods can be used to identify and correct deviant behavior in adolescents. According to it, the following conclusions can be formed:

- occurrence of deviant behavior in a person is determined by the role of socio-psychological, pedagogical factors in their emotional-emotional sphere, mental development;





- the manifestation of deviant behavior is evident on the basis of the effects of the social environment of the person;
- a person's deviant behavior is conditioned not only by a social factor, but also biologically;
- the formation of deviant behavior in adolescence is determined by their age characteristics and assimilation of social experiences;
- seeking to quickly enjoy special reasons that provoke actions against the law; striving for self-affirmation, comfort or high social status; oppositional morality (internal desire to violate, prohibitions); moral stereotypes (experience of being in a criminal environment); tendency to aggression and sadism; following social stereotypes and traditions; a sense of belonging to a group and the need for its approval; Boredom, danger and desire for sharp emotions; frustration, the need for forced protection; altruism (transgression at the expense of other people or higher goals) can be:

Antisocial thoughts, interests, needs, and habits of a deviant person may be the reason for committing a crime. Criminology is also interested in the moral qualities and psychological characteristics of a person. It is necessary to take into account all the characteristics of the criminal, because they affect the behavior of the person to a certain extent.

#### REFERENCES:

1. Дяченко М.И. Кандыбович Л.А. Психологический словарь – справочник. – Минск.: Харвест, 2007. – 276с.
2. Qurbonova Z. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Maruzalar matni. Namangan .1-6-35-40 b
3. Корнилова Т. "Подростки групп риска" С-П.б. 2005г.96-с
4. Komilova N. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" T. 2014. 91-102bet
5. Komilova N "Ijtimoiy reabiltatsiya" T.2014 110-121 b.
6. Маклаков А.Г. Общая психология: учебник для вузов. СПб: Питер, 2008.- 283с.
7. Ramazonov, J. D. Talabalar ta'lim jarayonida o'zini o'zi idora qilishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Obrazovanie i nauka v XXI veke. Mejdunarodnyy nauchno-obrazovatelnyy elektronnyy jurnal. Vypusk, (14), 794-800.
8. Ramazonov, D. J. (2022). Modelirovanie mexanizmov samoupravleniya studentov. Science and Education, 3(4), 1003-1011.
9. Ramazonov, J. J. (2021). Talaba-yoshlarda o'zini o'zi idora qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Innovation in the modern education system: a collection scientific works of the International scientific conference (25th March, 2021). Washington, USA:" CESS, 165.



## MTT MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI YOSHIDAGI BOLALARIGA QUYOSH TIZIMIDAGI SAYYORALAR VA MAYDA OSMON JISMLARI HAQIDA TUSHUNCHA BERISH

Karimova Dilabar Tashpulatovna  
Toshkent pedagogika kolleji bosh o`qituvchisi

Bolalarni jonli va jonsiz tabiatni o`rganishga qiziqishni o`stirish, kattalar va tengdoshlarning diqqatini jonli va jonsiz tabiatda sodir bo`layotgan tanish, notanish predmet va hodisalarga jalb qilishda “Ilk qadam” o`quv dasturida bolalarni “Koinot sirlari” mavzusi asosida tanishtirish vazifasi kiritilgan.

“Ilk Qadam” davlat o`quv dasturida asosiy rivojlantiruvchi markazlari bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi
2. Sujetli-rolli o`yinlar va drammashtirish markazi.
3. Til va nutq markazi.
4. Ilm fan va tabiat markazi.
5. San`at markazi.

Shundan “Ilm-fan va tabiat markazida” bolalarning “Koinot sirlari” haqidagi tushunchalari shakllantiriladi.

Bolalarimiz televizorlar orqali juda ko`p “Koinot sirlari” haqidagi filmlar, multfilmlar ko`rishadi, kompyuter o`yinlarini o`ynashadi. Turli xil boshqotirma o`yinlar, o`zga sayyoraliklar, uchar likopchalar, koinot mavzusiga oid fantastik kinolar, hikoyalar bolalarimizni juda qiziqtiradi.

Koinot sirlarini o`rganish natijasida bizning so`zlashuv nutqimizga koinot atamaları tobora keng kirib kelmoqda.

MTT maktabga tayyorlov guruhi yoshidagi bolalariga quyosh tizimidagi sayyoralar va mayda osmon jismlari haqida qisqacha ma`lumot berilsa, ularning atrof-olamda sodir bo`layotgan voqea-hodisalar haqidagi bilimlari mavhum bo`lib qolmay, balki ularning qiziqishi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, iqtidori rivojlanadi.

Bu haqida bilim berishdan maqsad- quyosh tizimidagi sayyoralar va mayda osmon jismlarini bir-biridan qanday farqlash mumkinligi haqida tushuncha berishdir.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida *mashg`ulotlar va markazlardagi faoliyatlarda bolalarga ilk astronomik tushunchalarni berish, ularning olam haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi va kelgusida maktab ta`limida fizik, astronomik bilimlarni oson o`zlashtirishga poydevor bo`lib xizmat qiladi.*

Tayanch iboralar:

1. Asteroidlar (yunoncha aster – yulduz va eidos – ko`rinish; «yulduzlar kabi» ma`nosini anglatadi) – kichik sayyoralar hisoblanadi, sodda qilib tushuntirilsa quyosh atrofida ma`lum orbita bo`ylab aylanuvchi kichik sayyoralarga asteroidlar deyiladi.



2. «Meteorit» soʻzi yunonchadan olingan boʻlib «havoga koʻtarilgan» tarjimasini beradi.

3. **Kometalar** (yun. kometes — uzun sochli) — dumli yulduz nomini olgan osmon jismlari.

4. **Teleskop** (grekcha: [tele] — "uzoq" va [skopeo] — "qarayman") — osmon yoritqichlarini vizual, fotografik, fotoelektrik va spektral usullarda kuzatish uchun moʻljallangan astronomik optik asbob.

5. **Krater** (yun. — «idish», «tovoq» «katta kosa») — togʻorasimon yoki voronka koʻrinishida hosil boʻlgan botiq, chuqurlik.) relyefdagi atrofi tepalik bilan oʻralgan chuqurlikdir.

MTT maktabga tayyorlov guruhi yoshidagi bolalariga quyosh tizimidagi sayyoralar va mayda osmon jismlari haqida tushuncha berish quyidagicha mazmunda boʻlishi mumkin:

(“Ilm-fan va tabiat markazida” bu maʼlumotlar bir necha qismga boʻlib oʻtiladi)

Bolalarga Quyosh va uning sistemasiga kiruvchi sayyoralarning rangli rasmlari koʻrsatiladi va tushuntiriladi:

Bolalar Yer bu sayyora. Yerdan tashqari yana qanday sayyoralar bor edi? (Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, Pluton sayyoralari ham bor). Bu sayyoralarning barchasi Quyosh atrofida aylanib yurishadi va ular quyoshning asosiy qarindoshlar hisoblanishadi. Kelinglar rasmga diqqat bilan qaraymiz. Quyoshga eng yaqin turgan birinchi sayyora bu Merkuriy, Ikkinchisi Venera, uchinchisi Mars, toʻrtinchi boʻlib bizning jonajon Yer sayyoramiz joylashgan, beshinchisi Yupiter, oltinchisi Saturn, yettinchisi Uran, sakkizinchisi Neptun, toʻqqizinchisi Pluton.

- Sayyoralarning Quyosh atrofidagi joylashuvini yaxshilab eslab qoldingizmi?

- Xozir sinab koʻramiz, Qani Quyoshga eng yaqin sayyora nomi nima ekan?

Bizning jonajon Vatanimiz Quyoshga nisbatan qaysi oʻrinda turibdi?

- Eng katta sayyorani korsating u nechahcni oʻrinda?

- Qaysi sayyora xalqasi bor u nechanchi oʻrinda turibdi?

- Jami Quyosh atrofida nechta sayyora aylanib yuradi?

Bilasizlarmi ana shu sayyoralardan tashqari yana Asteroidlar, kometalar, meteroidlar ham quyosh atrofida aylanib yurishadi. (Rasm koʻrsatiladi)

**Asteroidlar** – kichik sayyoralardan hisoblanadi. (Asteroidlarni kuzatish asosan fotografik usulda olib boriladi) Asteroidlarning koʻpchiligi juda xira, shu sababli, ularning birortasini ham teleskopsiz koʻrib boʻlmaydi. Asteroidlarning sayyoralardan asosiy farqi ularning kichik boʻlishidadur. Quyosh sistemasidagi asteroidlarning asosiy qismi Yupiter va Saturn orasida harakatlanishadi. Mana ular mana bu rasmda koʻrinib turibdi. Ular odatda asteroidlar belbogʻi deb ataladi.

Koinotda yana dumli yulduz **kometalar** bor. Kometalar - dumli yulduz nomini olgan osmon jismlaridir. Ular ham quyosh atrofida aylanadi, ularni quyoshga yaqin kelganda kuzatsa boʻladi. Kametaning tarkibi asosan muz, chang va gazlardan iboratdir. (Rasm koʻrsatiladi)



Quyosh sistemasi bo`ylab milliardlab **meteroitlar** uchib yurishadi. Ular har xil kattalikda bo`lishadi. Ayrimlar uni uchar yulduz deb atashadi (Rasm ko`rsatiladi)

Bolalar sayyoralarning barchasi Quyosh atrofida aylanib yurishadi va ular quyoshning asosiy qarindoshlaridir, lekin kametalar Quyoshdan juda uzoqda yashaydilar hamma sayyoralar ham uzoqda. Ularning dumlari Quyoshning oldiga mehmonga kelganda paydo bo`ladi. Kametalarning ortidan gaz, chang va bug`lardan iborat dumni ko`rishimiz mumkin. Ayrim kometalar sayyoralarga qulab tushishi ham mumkin, Marsdagi, Oydagi kraterlarda ularning ham xissasi bor. Meteroidlar esa Yergacha ham uchib kelishadi. Meteoritlar-Yer sirtigacha yetib keluvchi meteorlarga aytiladi. Ularning ayrim bo`laklari yer sirti bilan to`qnashishi natijasida Yer sirtida juda katta kratorlar paydo bo`ladi. Demak ko`rayayapsizki hamma osmon jismlari ham bizning Yer kurramiz uchun havfsiz emas. Ayrim osmon jismlari Yerga uchib kelishi natijasida u tushgan joyda yong`in chiqishi va kratorlar paydo bo`lishi mumkin. Kratorlar samodan kelgan meteoritning yer yuziga urilishidan va kuchli sun`iy portlashdan hosil bo`ladi. Unda tog`orasimon yoki voronka ko`rinishida botiq, chuqurlik hosil bo`ladi.

Kameta asteroid va meteroidlardan keskin farq qiladi. Soddaroq qilib aytganda asteroid va meteroit xarsang tosh bo`lsa kameta esa muz, chang va gazdan iboratdir.

Bizning o`zbek astronomlarimiz ham keyingi 30-40 yil davomida Asteroidlarga oid bir qancha ilmiy izlanishlar olib borib, barcha xalqaro dasturlarda faol qatnashib kelmoqdalar. Mars va Yupiter oralig`ida hozir Beruniy, Ulug`bek va boshqa nomlar bilan ataluvchi Asteroidlar parvoz qilib yuribdi.

Bolalar mana sizlarning oldingizda qog`ozlar, rangli qalamlar, bo`yoqlar, qaychi, yelimlar bor. Ulardan foydalanib Quyosh, Quyosh tizimidagi sayyoralar va mayda osmon jismlari yani Asteroidlar, kometalar, meteroidlarni ham quyosh atrofini aylanib yurishganini tasvirlashingiz mumkin. Har biringiz kelishib oling kim qaysi sayyorani yoki osmon jismlarini chizadi. Song hamma o`zi chizgan tasvirni qirqib mana bu qo`ra (to`q ko`k rang ham bo`lishi mumkin) vatman qog`ozga namunaga ko`ra ketma-ketlikda yo`pishtiring. Faqat siz Sayyoralarning katta-kichikligi va joylashuv o`rinlarini aniq ko`rib oling, Asteroidlar, kameta va meteroidlarni ham oralariga yopishtirib chiqing. Tarbiyachi bolalar ishini kuzatadi bazi masalalarni aniqlashtiradi, yo`naltiradi va rag`batlantirib boradi.

Mavzudan so`ng biz bolalarimiz Quyosh, Quyosh tizimidagi sayyoralar va mayda osmon jismlari yani Asteroidlar, kometalar, meteroidlarning quyosh atrofini aylanib yurganlik tasvirlangan jamovaiy ishlaridan quvonish hislari paydo bo`ladi.

Keyingi markazlardagi rivojlantiruvchi faoliyatlarda sayyoralar va mayda osmon jismlarini loydan, chiqindi materiallardan ham foydalanib turli xil maketlar yasashni o`rgatish tavsiya qilinadi.

#### **Tarbiyachi uchun ma`lumot:**

Kichik sayyoralarning paydo bo`lish masalasi astronomiyaning to`la hal qilinmagan sohalaridan biridir. Ba`zi farazlarga ko`ra, **Asteroidlar** bitta yoki bir nechta sayyoraning parchalanishi yoki sayyoralar to`qnashganda maydalanishidan hosil bo`lgan.

**Kometalar** bekorga dumli yulduz deb atalmaydi, ular o`zidan uzunligi bir necha ming km dan bir necha mln kmgacha bo`lgan dumlarga ega bo`ladi. Kometalar ham quyosh



atirofida aylanadi, ammo orbitasi ancha cho‘ziqroq bo‘ladi, shuning uchun ularni quyoshga yaqin kelganda kuzatsa bo‘ladi. O‘lchamlari 0.5-20km oralig‘ida bo‘ladi, tarkibi asosan muz va changlardan, boshqa kimyoviy elementlardan iborat bo‘ladi.

**Meteorlar** - Yer atmosferasiga katta tezlikda kelib uriluvchi va o‘zidan atmosfera qatlamlarida qisqa muddatli chaqnash hodisasidir.

**Krater**-ning diametri ko‘pincha 2—2,5 km dan oshmaydi. Chuqurligi bir necha metrdan yuz metrgacha bo‘ladi. Kratorlar vulkan otilishidan, samodan kelgan meteoritning yer yuziga urilishidan va kuchli sun‘iy portlashdan hosil bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Малышам о звёздах и планетах» Е.П. Левитан. Москва
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Asteroid>
3. <https://telegra.ph/Asteroidlar-kometalar-meteor-va-meteoritlarning-farqi-nimada-ekanligini-bilasizmi-12-13>





## JIZZAX VILOYATI SHAHARLARIDA SANOAT TARMOQLARINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Haydarova S.A.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

[Surayyo.uz@mail.ru](mailto:Surayyo.uz@mail.ru)

**Резюме:** в статье анализируется общие и территориальные аспекты организации и создании индустриальных малых городов в географических и природных условиях Джизакской области.

**Abstract:** In the article had been analyzed general end territorial aspects organization end the creation of industrial small towns in the geographical end physical conditions of the Jizakh region.

Sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etish har bir mamlakat va mintaq uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati va miqdori, xom-ashyo va ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, iqtisodiyotdagi o'rni ko'p jihatdan muayyan sanoat tarmog'ining hududiy joylashuvi va tashkil etilishi bilan bog'liq.

Zamonaviy sanoat tarmoqlarini har qanday mamlakatda rivojlantirish mumkin. Bunda aynan sanoat tarmog'ini joylashtirish tamoyillari va omillarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Insoniyat tarixining turli davrlarida shaharlar muayyan funksiyaga ya'ni vazifaga ega bo'lgan. Bu o'z navbatida ijtimoiy mehnat taqsimotida shaharlarning ixtisoslashuviga sabab bo'ladi. Ma'lumki shahrlar genetik jihatdan, ya'ni vujudga kelish jarayonida qaysidir ishlab chiqarish sohasi bilan bog'liq bo'ladi va binobarin qadimgi davrlardan beri ayrim shaharlarni muayyan ishlab chiqarish markazlari sifatida bilish rasm bo'lgan. XIX asr oxiri va undan keyingi davrlarda sanoat tarmoqlarining keng ko'lamda rivojlanishi shaharlarning sanoat tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuviga olib keldi. Shaharlar ba'zi sanoat tarmoqlarining yirik markazlariga aylandi va bu holat shaharlarning mamlakat, mintaq hamda dunyodagi ahamiyatini belgilab berdi.

Shaharlarning ixtisoslashuviga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ✓ Ishlab chiqarishni joylashtirish omillari;
- ✓ Aholining tabiiy va mexanik harakati;
- ✓ Fan va texnologiya taraqqiyoti.

Jizzax viloyati hududida tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish qadimdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Viloyat hududi asosan qishloq xo'jaligining turli yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lganligini e'tirof etgan holda, sanoat tarmoqlarining shakllanishi uchun muhim omillar mavjudligi ham ta'kidlanadi. Jizzax viloyati aholi punktlari negizida sanoat tarmoqlarini shakllantirish va aholi punktlarini sanoat tugunlariga aylantirish omillari quyidagilardan iborat:

- ❖ Viloyat tog' va tog' oldi tumanlarida aholi miqdori jihatidan yirik qishloq va shaharchalarning mavjudligi;
- ❖ Viloyat hududida mamlakat va xalqaro ahamiyatga ega magistral temir va avtomobil yo'llarining o'tganligi;



❖ Cho'l tumanlari markazlari va boshqa aholi punktlari o'rtasida transport tizimining qulay shakllanganligi;

❖ Cho'l tumanlari markazlari bo'lgan shaharchalarning yirik transport yo'llari ustida joylashganligi.

Albatta, mintaqada sanoatni rivojlantirish avvalo, mahalliy resurslar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish faqat mahalliy resurslargagina tayanib ish boshlashni taqozo etmaydi. Xususan, zamonaviy transport tizimi xom-ashyo va energetika muammolarini to'la hal eta oladi. Binobarin, har qanday hududda turli darajadagi sanoat korxonalarini shakllantirish imkoniyatlari mavjud.

Ayni vaqtda Jizzax viloyati sanoat tarmoqlarini shakllantirish borasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Jizzax maxsus industrial zonasining tashkil etilishi, tumanlar hududida rejalashtirilayotgan bir qancha ishlab chiqarish korxonalarini misol keltirish mumkin. Bu ishlarni amalga oshirish uchun birinchi navbatda viloyat hududidagi shaharchalarning sanoatni rivojlantira olish salohiyatiga atroflicha baho berish maqsadga muvofiqdir. Tumanlar hududidagi sanoat ishlab chiqarish korxonalarini asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan.

Jizzax viloyati respublikada tabiiy sharoitining keskin tafovutlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu holat asosan viloyat hududining tog' va tekislik cho'l hududlariga ajralganligidir. Ayni holat viloyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillarni ham belgilab beradi. Binobarin, xo'jalikning shakllanishi, aholi joylashuvi va rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va boshqa jihatlarning geografik tavsifi o'ziga xos tarzda tavsifga egadir. Ayni sharoitda sanoatning rivojlanishi muayyan iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillarga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Xususan sanoat shaharchalarini rivojlantirish uchun viloyatda bir qancha imkoniyatlar mavjudki, ulardan unumli foydalanish hududning industrial rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Jizzax viloyati tumanlaridagi muayyan aholi punktlarini kichik sanoat shaharchalariga aylantirish asosan quyidagi iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillarga bog'liq:

- Aholining tabiiy va mexanik harakati, hududiy tarkibi;
- Viloyatdagi transport tizimining hududiy shakllanishi.
- Viloyatdagi sanoat tarmoqlarini joylashtirish salohiyatiga ega aholi punktlari.

Ushbu omillarni har tomonlama tadqiq qilish taqozo etiladi. Har bir omilning sanoat shaharchalarini shakllantirishga ta'siri atroflicha tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada ba'zi mulohazalarni ma'lum tahlillarga tayangan holda keltirish mumkin:

❖ Viloyat aholisi yillar davomida miqdoriy ko'payish tendensiyasiga ega, bu asosan aholining tabiiy ko'payishi hisobiga kechmoqda, aholining mexanik harakati mustaqillik yillari davomida umumiy holatda manfiy saldoga egadir. Ichki migratsiya iqtisodiy va ijtimoiy muhit ta'sirida ekanligini tumanlar bo'yicha aholi ko'chishining o'zgarishlarida ko'rish mumkin. Masalan, Mirzacho'l tumanida bir qancha yillar davomida ko'chib ketuvchilar katta miqdorda bo'lgani holda so'nggi bir necha yil davomida ko'chib keluvchilarning ko'pligi bo'yicha boshqa tumanlardan oldinda turadi.

❖ Aholining hududiy tarkibi viloyatda sanoatning turli tarmoqlarini shakllantirish talablariga birmuncha javob beradi. Yosh va jinsiy tarkibning mutanosibligini



e'tirof etgan holda, mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tizimlashtirish kerakligi ta'kidlanadi. Buning uchun birinchi navbatda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, ularning malakasini oshirish talab etiladi.

Transport tizimi viloyat hududida sanoatni rivojlantirishning eng katta imkoniyatlarga ega omilidir. Xalqaro va mamlakat ahamiyatiga ega magistral temir va avtomobil yo'llari bilan bir qatorda viloyatning ichki hududlarini bog'lovchi transport yo'llari ham shunday imkoniyatlar berishi ta'kidlanadi. Transport yo'nalishlari va ular atrofida joylashgan aholi punktlarining sanoatlashish imkoniyatlari hududiy nuqtai nazardan turli darajadadir. Aholi punktlarida sanoatning transport tizimi bilan uyg'un rivojlantirish bir qancha omillarga bog'liq. Bular:

- Transport yo'llarining serqatnovligi;
- Yo'lning yirik magistrallar va markaziy o'rin tutuvchi hududlarga yaqinligi;
- Aholi punktlarining demografik rivojlanishi barobarida mehnat resurslarining etarililigi;
- Tabiiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlanganlik.

Hudud sanoatining rivojlanishida magistral yo'llar bilan bog'lanish, shu bilan birga ularga nisbatan juda yaqin joylashmaganlik ma'qullanadi. Serqatnov yo'llar yaqinida faqat xizmat ko'rsatish shohrbchalarini shakllantirish mumkin, ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari uchun esa yirik aholi punktlariga yaqinlik talab etiladi.

Viloyatda sanoat tarmoqlarini joylashtirish salohiyati eng yuqori bo'lgan aholi punktlari birinchi navbatda tuman markazlaridir. Bu aholi punktlari oldindan ba'zi sanoat tarmoqlarining shakllantirilganligi, aholi sonining nisbatan ko'pligi, transport tizimidagi qulaylik xususan, asosiy yo'llar ustida joylashganligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga yuqorida nazarda tutilgan asosiy omillar ta'sirida muayyan imkoniyatlarga ega aholi punktlarini sanoatlashtirish mumkinligi belgilanadi. Bu aholi punktlarining imkoniyatlari u yoki bu darajada salmoqli bo'lishi mumkin. Bu imkoniyatlarni o'rganish va xulosalar chiqarish uchun maxsus tadqiqot o'tkazish talab etiladi.

So'nggi yillarda respublikada ro'y berayotgan o'zgarishlar, jumladan yangi turdagi sanoat korxonalarining bunyod etilayotganligi, mamlakat taraqqiyotida yangi industrial bosqichning boshlanishidan darak beradi. Bu borada yirik shaharlarda qurilayotgan korxonalar bilan birga, erkin iqtisodiy zonalar, maxsus industrial zonalar atamaları ostida shakllanayotgan sanoat va ishlab chiqarish hududlari alohida ahamiyatga egadir.

Jizzax shahri va atrofida shakllanayotgan maxsus industrial zona, viloyatda sanoat tarmoqlarini vujudga keltirish va hududiy joylashtirishga yangicha yondasguvning misolidir. Birinchi navbatda, Jizzax shahri hududida ko'plab yengil sanoat va zamonaviy mashinasozlikning tarmoqlari kichik korxonalari o'z faoliyatlarini boshlagan bo'lsa, endilikda respublika va hatto Markaziy Osiyo mintaqasi miqyosida ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar qurilishiga o'tilmoqda. 2017 yilning aprel oyidan boshlab Zafarobod tumani hududida neftni qayta ishlash korxonasining qurilishi boshlandi. Ayni qurilish va korxonaning ishga tushishi Jizzax viloyatining hududiy rivojlanishidagi iqtisodiy geografik



omillarni yangicha talqin qilinishiga olib keladi, binobarin sanoat shaharchalarini shakllantirishni muhim va dolzarb vazifalar qatoriga qo'shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarova, S., Mavlonov, X., & Muxamedov, O. (2021). Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (Jizzax viloyati misolida). *Журнал естественных наук*, 1(1).

2.. Gapparov, A., Haydarova, S., & Zaynutdinova, D. (2020). Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

3. Gapparov, A., Haydarova, S., & Kayumova, M. (2020). Жиззах вилоятида урбанизация жараени ва унга таъсир этувчи омиллар. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

4. Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.

5. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. *European science review*, (3-4).



## UZBEKISTAN THE COUNTRY OF KNOWLEDGEABLE YOUTH

**Marvarid Sultonova**

*Teacher, Al-Beruniy International school*

**Normamatova Aziza Nodirjon Qizi**

*Student, Al-Beruniy International School*

**Abstract:** *As a child of an independent and democratic country and as a young adult educated in it, I would like to emphasize the great attention paid to young people in our country, first and foremost.*

**Keywords:** *literature and Youth, Logic and spirituality, textbook data.*

In particular, the development of international legal document the UN Convention on the Rights of the Youth, as well as the UN General Assembly's "Education and Religious Garden", aimed at the formation and implementation of youth policy in the rapidly developing world of globalization and information and communication technologies. These proposals address the noble goals of securing the right of youth to education, the elimination of ignorance and ignorance, the establishment of tolerance and mutual respect, and the provision of religious freedom. The issue of youth in our country is one of the priority issues since the first years of independence. The Law of the Republic of Uzbekistan "On the Fundamentals of State Youth Policy" of 20 November 1991 is a proof of our opinion. The Law on State Youth Policy, signed September 14, 2016 by the Head of State, provides young people with access to advanced education, affordable housing, and family loans, systemic social guarantee. According to the World Situation on Youth, 20 % of the world's population is young people, between the ages of 14 and 24. 85 % of all young people on earth live in developing countries. Despite the fact that the current generation is more educated than all of human history, about 113 million children do not attend school today. In total, 130 million children in the modern world are totally illiterate. The world is full of problems. Youth issues are of particular importance among them. In today's world, the issues related to the education of youth have become one of the main issues. They are forced to solve their own problems. According to the UN, young people between the ages of 15 and 24 are still face unemployment and poverty. Youth problems have been accumulated for decades, so they are not available. Our people have a proverb: "See and think and give thanks". Therefore, if we look at the turmoil observed in a number of countries in the present dangerous world, the state's neglect of young people, their interests, rights and interests in life, the current policy of their youth. The inability to respond to new challenges of the time. Our main task is to create the necessary conditions for young people to realize their potential, to prevent the spread of the idea of violence, said the President. We believe that it is necessary to develop multilateral cooperation for social support of young generation, protection of its rights and interests. During the years of independence, extensive work has been carried out in the country on upbringing of young people as spiritually mature and physically healthy, patriotic and selfless, protecting their rights and interests. In order to radically improve the activities in this area and bring it to a new high





